QASHQADARYO VILOYATI
MUBORAK TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180900, Muborak shahri, Zanjirsaroy shoh ko‘chasi, 15/1 uy. Tel.: 672-34-74, Faks:672-17-77

2022 - yil 18 - oktabr 563-4-64-Q/22 Muborak tuman hokimligi

Muborak tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Muborak tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Muborak tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgisi va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Muborak tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i F.Toyloqov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i B.Yusupov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori Sh.Ahmedovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va

transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Muborak hayoti” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning muborakpress.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Halikov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.O.Aripov**

Muborak tuman hokimining
2022 yil 18 oktabrdagi
563-4-64-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgisi va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	Mustaqillik ko‘chasi, Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi avtorargohi yonidan A-380 yo‘ligacha bo‘lgan 1,0 km masofada	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**